

LYUMINESTSENT-BITUMINOLOGIK TAHLIL

*J.Sh. Rabbimov¹**T.T. Temirov²*1- *QarMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrasi assistenti*2- *QarMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrasi 1-kurs talabasi*E-mail: rabbimov1933@gmail.com

Telefon: +99899-064-06-38

+99893-987-77-80

Annotatsiya. Ayrim uyumlar chegarasidagi neftning lyuminestsent ko'rsatkichlari o'zgaruvchan bo'lganligidan quduqlar kesimini neftning ushbu belgilari asosida o'zaro taqqoslash mumkin va u murakkab ish sanaladi. U yoki bu hududning neft-gazga istiqbolliliginini baholashda tarkibida bitum bo'lgan jinslarning lyuminestsent tavsiyi ma'lumotlari muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: eruvchanlik, razvedka, bitum, quduqlar kesimi, geologik kesim, xloroform, fraksiya, tekstura.

Tog' jinslaridagi neft va bitumning taqsimlanishi miqdori, sifatini aniqlash usuli. Lyuminestsent-bituminologik tahlil moddaning lyuminestsentsiyasini o'rganishdan tashqari, uning boshqa fizik-kimyoviy xususiyatlaridan (yutilishi, yuza qismining taranglashishini, tanlama eruvchanlik va b.) foydalanishga asoslangan. Bunda yuvuvchi eritma, shlam va tog' jinslari ultrabinafsha nurlari bilan nurlantiriladi. Natijada neft lyuminestsentsiyasi yuzaga keladi, uning rangi va jadalligi neft tarkibiga bog'liq holda o'zgaradi. Bu usul bir necha ketma-ket bajariladigan tahlillardan iborat: bitumli tekstura va strukturani aniqlash, kapillyar-lyuminestsent, tomchi-lyuminestsent, etalon-lyuminestsent, komponent-lyuminestsent tahlillar va b. Lyuminestsent-bituminologik tahlil yuqori sezgirlikka ega, shu sababli neft, bitum va bitumli tog' jinsining namunalarini olish va saqlash, tahlil ishlarini bajarishda maxsus talablarga rioya qilinadi.

Tahlil metodikasi V.N. Florovskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, undan asosan neft qidirish maqsadida bajariladigan izlash va razvedka ishlarida, quduq kesimining bitumliliginini o'rganishda, geologik kesimdagagi jinslardagi bitum miqdorini aniqlash va ularni o'zaro taqqoslashda foydalaniladi.

Bitum ohaktosh, angidrit va gipslarda tez, qumtosh va qumlarda sekin, gil va mergellarda juda qiyin aniqlanadi. Jinsning yangi singan yuzasiga tomizilgan xloroform yaxshi samara beradi. Neftning yengil fraksiyalari (300°S gacha bo'lgan

temperaturada qaynaydiganlari) hamda parafinlar lyuminestsentlanmaydi. Moy havo rang-ko'k, smola sarg'ish-qo'ng'ir (qattiq yoki yumshoq holatdagisi) yoki havo rang-sariq (eritmasi), naften kislotalari — kul rang-havo rangda jilolanadi. Ushbu usul yordamida jinsdagi bitum miqdorini 0,005% va undan yuqori bo'lganda aniqlash mumkin.

Ayrim uyumlar chegarasidagi neftning lyuminestsent ko'rsatkichlari o'zgaruvchan bo'lganligidan quduqlar kesimini neftning ushbu belgilari asosida o'zaro taqqoslash mumkin va u murakkab ish sanaladi. U yoki bu hududning neft-gazga istiqbolliliginini baholashda tarkibida bitum bo'lgan jinslarning lyuminestsent tavsifi ma'lumotlari muhim hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Abidov A.A., Ergashev Y, Qodirov M.H. Neft va gaz geologiyasi. Ruscha-o'zbekcha izohli lug'at. –T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
2. Abidov A.A., Ergashev Y, Qodirov M.H. Neft va gaz sanoati. Ruscha-o'zbekcha izohli lug'at. –T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyyati, 2004.
3. Бакиев С.А. Закономерности формирования промышленных юодных вод Узбекистана и перспективы их использования (автореф. диссер. на соиск. уч. степ. д.г.-м.н.). –Т.: 2012.
4. Турдиев, Ш., Комилов, Б., Раббимов, Ж., Бўриев, С., & Азимов, А. (2022). КИЗОТА (ЁШЛИК II) МАЙДОНИНИНГ ГИДРОГЕОЛОГИК ТУЗИЛИШИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11), 242-245.
5. Турдиев, Ш., Комилов, Б., Раббимов, Ж., & Бўриев, С. (2022). Муродтепа майдонида излов-қидирув ишларини баҳолаш тамойиллари ва иқтисодий самарадорлик кўрсаткичлари. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11), 246-250.
6. Rabbimov, J. S. (2022). QATLAMDAN KELAYOTGAN OQIMNI JADALLASHTIRISH MAQSADIDA QATLAMGA KISLOTALI ERITMA BILAN ISHLOV BERISH (MURODTEPA MAYDONI MISOLIDA). *Евразийский журнал академических исследований*, 2(3), 373-378.
7. Комилов, Б. А., Раббимов Ж. Ш. (2022). Кизота (Ёшик-II) майдонининг тектоник тузилишини органиш. *ЕВРАЗИЙСКИЙ ЖУРНАЛ АКАДЕМИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ* Узбекистон , 4 , 15.
8. Rabbimov, J., & Komilov, B. (2022). MURODTEPA MAYDONIDA O 'TKAZILGAN SINOV ISHLARINING NATIJALARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(9), 20-27.

9. Турдиев, Ш., Комилов, Б., Раббимов, Ж., & Азимов, А. (2022). ҚИЗОТА (ЁШЛИК II) МАЙДОНИНИНГ СТРАТИГРАФИЯСИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11), 502-504.
10. Sh, T. S., & Rabbimov, J. (2022). SH. Qatlamdan kelayotgan oqimni jadallashtirish maqsadida qatlamga kislotali ishlov berish (Murodtepa maydoni misolida). *EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH* Узбекистон, 3, 12.
11. Turdiyev, S., Komilov, B., Rabbimov, J., Bo'riyev, S., & Azimov, A. (2022). QIZOTA (YOSHLIK II) MAYDONINING GIDROGEOLOGIK TUZILISHI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 242-245.
12. Komilov, B. A., & Rabbimov, J. S. (2024). PORTLANDSEMENTNING MUSTAHKAMILIGI. SEMENTTOSH VA BETONLARNING KIMYOVIY HAMDA FIZIK YEMIRUVCHI OMILLAR TA'SIRIGA CHIDAMLILIGI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(3), 127-130.
13. Раббимов Дж. С. и Темиров Т. Т. (2024). КУДУКЛАРДАН ОЛИНГАН МА'ЛУМОТЛАР БО ЎИША ГЕОЛОГИК КИРКИМЛАР ТУЗИШ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14 (5), 35-38.
14. Раббимов Дж. С. и Темиров Т. Т. (2024). МО 'ТАДИЛ ВА НАМУНАЛИ КЕСИМЛАРНИ ТУЗИШ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14 (5), 39-42.